

Shavkat Mirziyoyev Dushanbega jo'nab ketdi



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi majlisida ishtirok etish uchun 27-sentyabr kuni Tojikistonga jo'nab ketdi.

Sammit kun tartibidan turli sohalardagi ko'p qirrali hamkorlikni yanada rivojlantirishning joriy holati va istiqbollarga doir keng ko'lamli masalalar o'rin olgan.

Shuningdek, davlat rahbarlari 2019-yilda Hamdo'stlikka raislik qiladigan mamlakat, Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi majlisini o'tkazish joyi va muddatini belgilash masalalarini ko'rib chiqadi, mintaqaviy va xalqaro siyosatning dolzarb muammolari yuzasidan fikr almashadi.

O'zbekiston Prezidentining tashrifi doirasida ikki tomonlama uchrashuvlar o'tkazish ham ko'zda tutilgan.

[O'ZA](#)